

“UYG‘UR TABOBATI” KONTSEPTI VA UNING LINGVOMADANIY AHAMIYATI

Gisarov Farxod

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

An'anaviy uyg‘ur tabobati inson tanasidagi neyrofiziologik va psixofiziologik holatlarni normallashtirish orqali kasalliklarning oldini olish va davolashga qaratilgan o‘ziga xos etnik-lingvo madaniy, nazariy va amaliy hamda mantiqiy katta tajribaga ega tizim sifatida qaraladi.

Ushbu maqolada an'anaviy uyg‘ur tabobatining mohiyatini yanada aniqroq tushunish sari olib borilayotgan izlanishlarning kontseptual-kognitiv jihatlariga uyg‘ur tabobati atamalariga xos etnik-lingvomadaniy xususiyatlar hamda leksikologik g‘oyalar nuqtai nazaridan baho berishga uriniladi.

Ushbu maqolaning maqsadi an'anaviy va noan'anaviy uyg‘ur tabobati haqidagi uyg‘ur, o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi tilshunoslikka oid bilimlar hamda ommaviy axborot vositalarida berilgan matnlar asosida talqin qilish nuqtai nazaridan tahliliy ilmiy xulosalar bayon etishdir.

Kalit so‘zlar: *Xalq Tabobati, Uyg‘ur tabobati, an'anaviy uyg‘ur tabobati (AUT), termin-atamalar, ijtimoiy-lingvo madaniy sabab va omillar, ilmiy-tibbiy iste'mol, tarixiy-tamadduniy negizlar, Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi,*

ABSTRACT

Traditional Uighur medicine is regarded as a unique ethno-linguistic cultural system with extensive theoretical, practical, and logical experience, aimed at preventing and treating diseases by normalizing neurophysiological and psychophysiological states in the human body.

This article attempts to evaluate the conceptual-cognitive aspects of the ongoing research toward a clearer understanding of traditional Uighur medicine. It also explores the ethnolinguistic and cultural features, as well as the lexical ideas, inherent in the terminology of Uighur medicine.

The aim of this article is to present analytical scientific conclusions from the perspective of linguistic knowledge about traditional and non-traditional Uighur medicine, based on texts provided in Uighur, Uzbek, Russian, and English, as well as materials from mass media sources.

Keywords: *Folk Medicine, Uighur Medicine, Traditional Uighur Medicine (TUM), terminology, socio-linguistic and cultural causes and factors, scientific-*

medical usage, historical-civilizational foundations, Uighur medicinal raw materials science.

Tadqiqot materiallari va usullari

Tadqiqot ommaviy axborot vositalarida taqdim etilgan ma'lumotlarning aniqligini ta'minlash uchun Sharq an'anaviy tabobati kontseptsiyasida ta'kidlangan aniqlik, ob'ektivlik va qayta tekshirish mezonlari asosida hamda ushbu mezonlarga lingvo-etnik madaniy jihatdan maqbullik tamoyilari asosida olib borilgan. Tadqiqot jarayonida tahlil qilingan matnlar kasalliklarni davolashda xalq tabobati samaradorligini qanday baholanishini aniqlash maqadida tahlil, kontent tahlili va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

KIRISH

Uyg'ur tili o'zining ko'p ming yillik tarixiga ega turkiy tillardan biri bo'lib, bu tilda azaldan qator badiiy, ilmiy asarlar bitib kelingan. Turkiy tillarning eng ko'zga ko'ringan vakili sifatida uyg'ur tili qadimdan o'zining alifbosiga ega bo'lgan. Qadimgi Xitoy, Hindiston madaniyatlari bilan bir davrda Sharqiy Turkistonda istiqomat qilib kelgan uyg'ur xalqi ham o'z milliy madaniyatiga-tsivilizatsiyasiga ega bo'lganligi hamda taraqqiyotda mazkur qo'shni xalqlar kabi katta yutuqlarni qo'lga kiritganligiga aslo shubha yo'q. N.V.Malisheva o'zining "Leksiko-semanticheskije paralleli yakutskogo i uygurskogo yazikov (Imena sumestvitelniye)" nomli maqolasida: "Uyg'ur tilini o'rganish XI asrda Mahmud Qoshg'ariy tomonidan boshlangan, u uyg'ur tilining nafaqat leksikasini, balki grammatik tuzilishini ham tadqiq qildi"¹ deb yozadi.

Uyg'ur tabobati Xalq Tabobati, an'anaviy uyg'ur tabobati (AUT) kabi nomlar bilan ham ataladi va o'z ichiga uyg'ur xalqining necha ming yillar davomida jamlanid kelayotgan davolash usullari borasidagi bilimlari haqidagi noyob ma'lumotlarni jamlaydi.

MUHOKAMA

"Konsept" termini XX asrning 90-yillaridan boshlab qo'llanilib keladi. Konsept tushunchasining tilshunoslikda qabul qilinganligi madaniyat, ong, tafakkur va til birligining asosiy o'ziga xosliklarini aniqlashda, lingvistikaning kulturologiya, falsafa va kognitologiya aspektlari uchun yangi bosqich bo'lib xizmat qildi. Ushbu tushuncha ustida tadqiqotlar olb borgan tilshunos olim S.A.Askoldov konseptga "bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o'zida aks ettiradigan birlik" deb izoh beradi. Rossiya Fanlar akademiyasi a'zosi, filologiya fanlari

¹Malisheva N.V. leksiko-semanticheskije-paralleli-yakutskogo-i-uygurskogo-yazykov
<https://cyberleninka.ru/article/n/leksiko-semanticheskije-paralleli-yakutskogo-i-uygurskogo-yazykov>

doktori N.D.Arutyunova esa “Konsept falsafadagi amaliy tushuncha bo‘lib, milliy an‘ana, hayotiy tajriba, din, ideologiya, folklor, san‘at obrazlari kabi ko‘plab omillar va fikrlash jarayoni o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. U – inson va dunyo o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatadigan madaniy qatlamni o‘zida namoyon qiladi” – deya yozadi. Adabiyotshunos olim D.S.Lihachev o‘zining «Концептосфера русского языка» ilmiy ishida konseptni “so‘zning lug‘at ma‘nosi bilan insonning o‘z milliy qarashlari to‘qnashuvi natijasida hosil bo‘ladigan fikrlash jarayonining mahsuli”. – deb ta‘riflaydi hamda quyidagi fikrlarni yozadi: “Demak, tushuncha qanchalik boy bo‘lsa, undan foydalanayotgan shaxsning milliy, sinfiy va shaxsiy tajribasi ham shunchalik boy bo‘ladi. Umuman olganda, shaxs lug‘at boyligida, shuningdek, umuman tilda ochilgan potentsiallarni kontseptual sohalar deb atash mumkin. Milliy tilning kontseptual sohasi qanchalik boy bo‘lsa, xalqning butun madaniyati - uning adabiyoti, folklori, ilm-fan va tasviriy san‘ati (ular ham tilga, shuning uchun milliy kontseptual sohaga bevosita aloqador) boy bo‘ladi. Bu xalqning butun tarixiy tajribasi bilan, ayniqsa din (diniy qaqrashlari) bilan bog‘liq”².

“Kontseptual soha kontseptsiyasi ayniqsa muhimdir, chunki u nima uchun til shunchaki muloqot vositasi emas, balki o‘ziga xos kontsentratsiyalangan madaniyat - millatning turli qatlamlari madaniyati timsoli ekanligini tushunishga yordam beradi.

Millat tili butun xalq madaniyatini o‘zida mujassamlashtirgan, boshqacha aytganda “algebraik ifodasi”dir.”³

“Tilshunoslik rivojlangani sari uning tarkibiy qismi bo‘lgan kognitiv lingvika qoidalaridan ham foydalanish samarali natijalar bera boshladi. Bu esa, o‘z navbatida, mazkur asosiy g‘oyalar taraqqiy etib **“olamning lisoniy manzarasi”** deb atalmish umumilmiy atamaga aylandi. Tamaddun jarayonida insonning lisoniy olamiga kirib kelgan “konseptualizatsiya” tushunchasi *“insonning kognitiv faoliyatidagi eng muhim jarayonlardan biri bo‘lib, ong tomonidan resepiant sifatida qabul qilinadigan ma‘lumotlarni anglab yetishda yetakchi o‘rin egallaydi va inson miyasida, ya‘ni psixikasida konsept, kontseptual tuzilma hamda butun kontseptual tizimning shakllanishiga olib keladi”*⁴

Yusupova, M. ning fikriga ko‘ra: “zamonaviy tilshunoslikdagi kognitiv yo‘naltirilgan lingvokulturologik yondashuv – olamning lisoniy kontseptualizatsiyasi

² Лихачев Д. С. Концептосфера русского языка. <https://studfile.net/preview/3542214/page:68/>

³ Лихачев Д. С. Концептосфера русского языка. <https://studfile.net/preview/3542214/page:68/>

⁴ Yusupova M. Lingvokulturologik tadqiqotlarda lingvokognitiv kontseptlar. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(11), November, 2023 881.

– voqelikni kognitiv modellashtirishning o‘ziga xos tarzda tashkil etilgan jarayoni sifatida tushuniladi”⁵.

Rossiya Federatsiyasi Tula shahri koz jarrohlik Klinikasi oliy toifali shifokor Natalya Vladimirovna Efremova o‘zining “N. M. Amosovning ilmiy matnlarida “Tibbiyot” kontsepti”⁶ nomli maqolasida akademik D. S. Lixachevning kontseptologiya sohasida fikrlarini ta’kidlar ekan shunday yozadi: “Rus tiliga kontseptosfera tushunchasi akademik D. S. Lixachev tomonidan kiritilgan va so‘zning har bir asosiy (lug‘at) ma’nosi uchun alohida mavjud bo‘lgan va ma’noning o‘ziga xos "algebraik" ifodasini ("algebraik belgi") ifodalovchi kontseptlar to‘plami sifatida tavsiflanadi, "biz yozma va og‘zaki nutqimizda ishlatamiz, biroq odam ba’zan kontseptning murakkab ma’nolarini to‘laligicha fikran qamrab ololmaydi; shunga asosan uning ma’nolarini o‘ziga xos tarzda talqin qiladi” [4, 4-9-betlar].

Maqola muallifi olim tomonidan tilning kontseptual sohasini rus madaniyatining kontseptual sohasi bilan bog‘liqligi haqdagi qarashlariga e’tibor qaratadi hamda uning rus tilining kontseptual boylik darajasi quyidagi to‘rt daraja bilan belgilanadi, degan fikrini keltiradi:

a) so‘z boyligi va grammatik darajasi, ya’ni xalqning ming yillik tajribasi, cherkov slavyan tili va boshqa xalqlar tillari bilan yaqin aloqasi tufayli nihoyatda boy imkoniyatlari; b) so‘z qo‘llanishining ma’no boyligi va rang-baranglik darajasi; v) kontseptuallik darajasi; d) kontseptual soha, ya’ni kontseptual sohalari darajasi, [O‘sha yerda, b. 9]. Shuningdek bu tushunchalar va kontseptual sohaga oid pozitsiyadan turli xil matnlarni, shu jumladan ilmiy matnlarni tahlil qilishda foydalanish mumkinligini ta’kidlaydi.

N. M. Amosovning "Tibbiyot" haqidagi qarashlari umume’tirof etilgan qarashlardan sezilarli darajada farq qiladi: "Shifokorlar va bemorlarining e’tibori kasalliklarni davolashdan ko‘ra ularning oldini olish va salomatlikni asrashni targ‘ib qilishga qaratilishi kerak, odamlarga hayotdan to‘liq zavq olish yo‘llarining salohiyatini kashf qilish, shaxsiy o‘shini ro‘yobga chiqarish va ijtimoiy taraqqiyotni rivojlantirish tushuntirilishi lozim, bu salomatlik paradigmasining, ya’ni salomatlik bilan bog‘liq muammolarni hal qilish usulining o‘zgarishini anglatadi”, degan fikrlari ta’kidlanadi. [1, 47-bet].

Efremova N. V. Akademik N. M. Amosovning tibbiyot haqidagi tushunchasi, birinchi navbatda, davolash emas, balki kasallikning oldini olish muhimroq ekanligini anglatadi, degan xulosaga keladi.

⁵ Yusupova M. Lingvokulturologik tadqiqotlarda lingvokognitiv kontseptlar.

file:///C:/Users/user/Downloads/lingvokulturologik-tadqiqotlarda-lingvokognitiv-kontseptlar.pdf

⁶ Efremova N. V. KONTSEPT «MEDITSINA» V NAUCHNYKH TEKSTAKH N. M. AMOSOVA.

file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram%20Desktop/alm20101164_251011_192332.pdf

NATIJALAR

“Uyg‘ur tabobati” kontsepti va uning lingvomadaniy ahamiyati mavzusida hozirga qadar e‘tiborli ilmiy qarashlar ko‘zga tashlanmadi, biroq shunga qaramay bu mavzuga ilmiy nuqtai nazardan yondashuv ushbu kontsepning qator muhim jihatlarga ega ekanligini ochib bera oladi.

Shinjong Xalq Sixxiya nashriyotida 2012 yilda chop etilgan II qismdan iborat “Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi” ensiklopediyasi da uyg‘ur dorivor o‘simliklar bilan davolash tarixi, tibbiy usullarning benazirligi, xalq tabobati texnikasi, inson tanasining fiziologik tuzilmalari orasidagi uzviy bog‘liqlik, inson tanasi a‘zolarining faoliyati, ushbu faoliyatni yaxshilash yo‘lida foydali dorivorlarning o‘ziga xos ahamiyatli jihatlari, tabiatda xom uchraydigan shifobaxsh o‘simliklarning turlari, ulardan inson salomatligini yaxshilashda qo‘llanish metodlari, mazkur o‘simliklarning kimyoviy tarkiblari va ularni tabobatda ishlatish me‘yorlari kabi masalalar batafsil bayon etilgan. Ushbu ensiklopedik salohiyatga ega bo‘lgan kitob Uyg‘ur tabobatchilik-dorigarchilik (farmatsevtika) oliy maktab (O‘quv yurt)lari uchun darslik vazifasini o‘tab kelmoqda.

Ali Hoji Emchi muallifligida nashr qilingan ushbu entsiklopediya kirish so‘zida Uyg‘ur tabobatining ahamiyati xususida quyidagicha deyiladi: “Uyg‘ur tabobatchiligi – uyg‘ur xalqining tarixiy tabiat hodisalarini tanish, tabiat qonuniyatlarini anglash va odam organizmiga tatbiq etish orqali inson tanasida paydo bo‘ladigan turli xildagi kasalliklarga qarshi turish, oldini olish hamda davolash amaliyotida jamlangan katta tajribalarining ilmiy yakuni sifatida yuzaga kelgandir”⁷.

“Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi” ensiklopedik o‘quv qo‘llanmasi uyg‘ur tilidagi tabobat va dorigarchilikda keng istifoda etilayotgan giyohlarning tabiiy xususiyatlari asosida qaysi kasallikka davo bo‘lishiga qarab tartiblangan.

O‘simliklar nomlarining leksik-etimologik, ijtimoiy-madaniy, semantik – fitonomik maydonlariga e‘tibor berilmagan. Zero, dorivor o‘simliklarning nomlanishi, tarixiy fitonomik-lingvistik-semantik jihatlari va xususiyatlarini tadqiq qilish tilshunoslik faniga yanada yangi ma‘lumotlar bera oladigan obyekt hisoblanadi.

Shifobaxsh giyohlar nomlanishi, ularning paydo bo‘lishi, etno-lingvo -madaniy, ijtimoiy-tarixiy jarayonining tadrijiy yo‘llarini tahlil qilish orqali muayyan xalq tilidagi soha atamalarida mazkur xalqning ma‘naviy mental qarashlari mujassam bo‘lganligi namoyon bo‘ladi.

⁷ Abdurahim Yusup., Ali Hoji Emchi. Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi. Shinjong Xalq Sixxiya nashriyoti. 2012 y. II qism. 1130 b. B. – 4.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, uyg'ur xalqining ushbu etno-lingvo -madaniy, ijtimoiy-tarixiy merosini asosli o'rganish uchun eng birinchi galda uyg'ur tilini yaxshi o'rganish bosh vazifa bo'ladi.

Bugungi kunda uyg'ur xalqining siyosiy-ijtmoiy ahvoli ular yashab kelayotgan mamlakatning ichki siyosati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, qo'llanmaning kirish so'zida bu fikrga urg'u berib o'tilganligini ko'rish mumkin, jumladan unda shunday yoziladi: "Uyg'ur tabobati – Jungxuo Xalq jumhuriyati Shinjong Uyg'ur avtonom rayonida yashab kelayotgan uyg'urlarning an'anaviy tabobati"⁸

Ushbu qo'llanmada uyg'ur tabobatiga nisbatan "uyg'urlarning an'anaviy tabobati" deb baho beriladi.

Shuningdek, milliy dori sanoati rivojlantirishga hissa qo'shish borasidagi quyidagi jumlaning vatanparvarlik hissi sindirilgan chorlov sifatida tushunish o'rinli bo'ladi: "Rayonimizdan chiqadigan, kundalik turmushimizda burundan ishlatilib kelinayotgan dorilarni, saralab o'stirib kelinayotgan dori – materiallarni birinchi galda o'rganish va ulardan foydalanishni ilgarigi o'ringa qo'yish lozim"⁹.

XULOSA

Bugungi kunda jamiyatda dolzarb muammolarni yoritish, ayniqsa, inson salomatligi va uni saqlash yo'lidagi umuminsoniy sa'yi -harakatlar olib borish masalalarida zamonaviy ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyatini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi.

Sharq tabobatiga oid internet saytlaridagi hamda ommaviy axborot vositalaridagi matnlarining tahlili quyidagi xulosalarni aniqlash imkonini beradi:

- ayrim kasalliklarni davolashda an'anaviy tibbiyot va zamonaviy tibbiyotning ijobiy samaradorligini e'tirof etish, ularning afzalliklarini ta'kidlash;
- Uyg'ur tabobati va umuman xalq tabobatining asosiy tushunchalari nazariyasini tavsiflash hamda ularni diagnostika va davolashda qo'llash;
- turli xil terapevtik va profilaktik davolash usullarini tavsiflash (shifobaxsh o'simliklar va turli moddalardan tayyorlanadigan dori-darmonlar, akupunktura usulida davolash va shu kabilar), hamda ularning samaradorligi haqidagi tavsiyalarga e'tibor qaratish;
- sog'liqni saqlash sohasidagi yangiliklar, jumladan, an'anaviy tibbiyotdagi parhez va jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishning salomatlik uchun foydali jihatlari borasidagi tavsiyalarini kehgroq ilmiy-sohaviy yoritish;

⁸ Abdurahim Yusup., Ali Hoji Emchi. Uyg'ur tabobati xom dorilar ilmi. Shinjong Xalq Sixxiya nashriyoti. 2012 y. II qism. 1130 b. B. -5.

⁹ Abdurahim Yusup., Ali Hoji Emchi. Uyg'ur tabobati xom dorilar ilmi. Shinjong Xalq Sixxiya nashriyoti. 2012 y. II qism. 1130 b. B. -5.

• an'anaviy tibbiyot va zamonaviy tibbiyot uyg'unligi jihatlarini ilmiy dalillar asosida har taraflama yoritish va h.k.z..

Xulosa sifatida, uyg'ur tabobati mutaxassisleri tomonidan anan'anaviy va zamonaviy tibbiyot o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor qaratilishini an'anaviy tabobat davolash usullari hamda mahalliy dorivorlardan tayyorlangan preparatlarning terapevtik ta'sirni yaxshilashga yo'naltirilgan bo'lib, an'anaviy va zamonaviy tibbiyotning afzalliklarini birlashtirish g'oyasi asosida olib borilayotganligini e'tirof etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahim Yusup., Ali Hoji Emchi. Uyg'ur tabobati xom dorilar ilmi. Shinjong Xalq Sixxiya nashriyoti. 2012 y. II qism. 1130 b.
2. Amosov N. M. Salomatlik haqida mulohazalar. Moskva: Jismoniy tarbiya va sport, 1987. 60 p.
3. Dadaboyev H. O'zbek Terminologiyasi: o'quv qo'llanma/ Hamidulla Dadaboyev. -Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 136 b.
4. Малышева Н. В. Лексико-семантические параллели якутского и уйгурского языков. Текст научной статьи по специальности «Языкознание и литературоведение». <https://cyberleninka.ru/article/n/leksiko-semanticheskie-paralleli-yakutskogo-i-uygurskogo-yazykov>. 2014.
5. Efremova N. V. KONTSEPT «MEDITSINA» V NAUCHNYKH TEKSTAKH N. M. AMOSOVA. file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram%20Desktop/alm20101164_251011_192332.pdf
6. Shomiyeva A., Saidvaqqosov G'. Uyg'ur tili grammatikasi. Almata. 1967. B – 50.
7. Razzaqova O., To'rakulova S. (2022). Terminologiya va uning tarixi. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 1(4), 905–908. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/364>
8. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2002.
9. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2002.
10. Yusupova M. Lingvokulturologik tadqiqotlarda lingvokognitiv kontseptlar. file:///C:/Users/user/Downloads/lingvokulturologik-tadqiqotlarda-lingvokognitiv-konseptlar.pdf